

QORAQALPOQ «KO‘K KO‘YLAK» MILLIY LIBOSI MATOSINING TARIXIY- TEXNIK TAHLILI

M.B.Ortiqboyeva

Z.T.Bekmuratova

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20541161>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi «Ko‘k ko‘ylak» Qoraqalpoq milliy libosi matosining xomashyo asosi, ip yigirish, to‘quv va tabiiy-koloristik texnologiyalari tadqiq etilgan. Unutilgan an’anaviy usullarni zamonaviy sanoatda qayta tiklash masalalari I.V. Savitskiy muzeyi eksponatlari tahlili asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ko‘k ko‘ylak, Amirxon paxtasi, o‘rilish raporti, chiziqli zichlik, sirt zichligi, jonshig‘an, qoramiq, Savitskiy muzeyi, xalq to‘qimachiligi, eko-moda.

Har bir millatning o‘ziga xosligi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari va madaniy qadriyatlarining uning moddiy madaniyat namunalari, xususan, an’anaviy to‘qimachilik mahsulotlarida mukammal aks etadi. Qoraqalpoq xalq amaliy san’atida alohida o‘rin tutadigan «ko‘k ko‘ylak» shunchaki marosim kiyimi bo‘lmay, o‘z davrining iqtisodiy-texnologik munosabatlarini va xalqning yuksak estetik didini ko‘rsatuvchi ob’jekt hisoblanadi. Global madaniyat va sanoatlashuv jarayonlari jadallashgan hozirgi davrda, an’anaviy to‘qimachilik merosini ilmiy asosda tadqiq etish muhim vazifadir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti YUNESKO tomonidan qabul qilingan qadriyatlarni tiklash, ularning yo‘qolib ketishining o‘tkir xavfini oldini olish va kelajak avlodga yetkazish tamoyillaridan kelib chiqqan holda, ushbu milliy libos matosining tuzilishi hamda tayyorlanish jarayonini tarixiy-texnik jihatdan o‘rganish fanda ham, ishlab chiqarishda ham katta dolzarblikka ega.

«Ko‘k ko‘ylak» libosi xomashyo asosi va iplarni tayyorlash jarayoni o‘ziga xos tarixiy-texnik xususiyatlarga ega bo‘lib, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Qoraqalpog‘iston hududida ekilgan maxsus paxta navi bilan uzviy bog‘liqdir. Tarixiy manbalarda va arxiv ma’lumotlarida qayd etilishicha, ushbu matoni to‘qish uchun Amerika navli uzun tolali paxtadan keng foydalanilgan bo‘lib, mahalliy aholi uni o‘z tilida Amirxon paxtasi deb atagan. Ushbu navga mansub paxta tolasining asosiy texnologik xarakteristikasi uning o‘ta yumshoqligi, ingichkaligi hamda yigirish jarayonida yuqori pishituvchanlikka egaligidir. Tola tarkibidagi tabiiy elastiklik va uzunlik ipning uzilishga chidamliligini ta’minlagan, bu esa qo‘lda ip yigirish sifatini keskin oshirgan. Biroq, vaqt o‘tishi bilan sodir bo‘lgan ekologik o‘zgarishlar, Orol dengizining qurishi va iqlimning keskin kontinentallashuvi sababli hozirgi kunda ushbu Amirxon paxta navi Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi sharoitida mutlaqo uchramaydi va uning o‘rnini zamonaviy seleksiya navlari egallagan.

Matoni ishlab chiqarish texnologiyasi to‘liq qo‘l mehnatiga asoslangan bo‘lib, bir necha bosqichli murakkab jarayonlardan tarkib topgan. Chigitdan qo‘lda ajratib olingan sof paxta tolalari dastlab maxsus savash yordamida titilgan va piltalar holatiga keltirilgan. Shundan so‘ng, xotinqizlar an’anaviy qo‘l urchug‘idan foydalangan holda tolalarni yigirib, ingichka iplar hosil qilishgan. Matoning mustahkamligini, chiziqli va sirt zichligini ta’minlash maqsadida iplar bir qavat emas, balki qo‘sh qavat qilib bir-biriga eshilgan va pishitilgan. Ushbu pishiq iplar qadimiy ensiz qo‘l dastgohlarida, ya’ni o‘rmek yoki do‘kon uslubidagi to‘quv moslamalarida to‘qilgan.

Maqsadimiz tariximizning boy xazinasini bo‘lgan ushbu milliy to‘qima strukturasi mexanik jihatdan chuqur o‘rganish hamda unga juda o‘xshash bo‘lgan gazlamani zamonaviy usulda, ya’ni

avtomatlashtirilgan sanoat to‘quv stanoklarida ishlab chiqarish yo‘llarini ishlab chiqishdir. «Ko‘k ko‘ylak» libosi ijtimoiy-pedagogik va tarbiyaviy ahamiyati qoraqalpoq xalqining oilaviy hayot tarzi bilan uzviy bog‘liqdir. Urf-odatlariga ko‘ra, har bir qiz bola o‘zining bo‘lajak to‘y libosini yoshligidan, aniqrog‘i o‘n-o‘n uch yoshidan boshlab o‘z qo‘li bilan tikishga kirishgan. Bu an‘ana yosh qizlar hayotida o‘ziga xos amaliy hunarmandchilik maktabi va ijtimoiy imtihon vazifasini bajargan. Ko‘ylak matosini to‘qish, unga rang berish va andaza asosida bichib, kashta tikish jarayoni juda katta mehnat, aniqlik va vaqt talab qilganligi sababli, bu jarayon qizlarni bolalikdan sabr-toqatli bo‘lishga, irodani chiniqtirishga va qiyinchiliklarga chidashga o‘rgatgan. Shu sababli ham xalq orasida ko‘k ko‘ylak tikish qiz bolaning kelajakdagi sabr-bardoshi va hunarmandlik mahorati ramzi sifatida talqin qilingan. Libosning estetik va dekorativ bezaklari o‘ziga xos chuqur simvolik naqshlar tizimidan iboratdir.



Rasm.1 Nukus shahri I.V. Savitskiy muzeyidagi «Ko‘k ko‘ylak» eksponati

Ko‘k ko‘ylakning old tomoni, yuqori ko‘krak qismidan boshlab to pastki etagigacha zich tarzda, shuningdek, yeng uchlari aylana qilib har xil qo‘lda to‘qilgan naqshlar bilan to‘ldirilgan. Naqshlarni to‘qishda asosan yorqin qizil va sariq rangli ipak iplardan foydalanilgan bo‘lib, bu ranglar ko‘k fon bilan kuchli kontrast hosil qilgan. Kiyim hamda bezaklarning uyg‘unligi xalqning o‘tmishdagi yarim ko‘chmanchi turmush tarzini tushuntiradi. Kashtalarda qo‘llanilgan naqshlarning asosiy motivlari dengiz to‘lqinlari, baliq ko‘zi va shabada oqimi bo‘lib, bular bir so‘z bilan aytganda, tabiat hamda kundalik turmush bilan boyitilgan, badiiy jihatdan umumlashtirilgan elementlardir. Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, Qoraqalpoq xalqining moddiy merosi bo‘lgan «Ko‘k ko‘ylak» libosi va uning an‘anaviy tayyorlanish usullari o‘tmishdagi yuksak texnologik va estetik madaniyatning yorqin namunasidir. Hozirgi kunda ushbu an‘anaviy kiyimning haqiqiy asl nusxasi Nukus shahridagi jahonga mashhur I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat san‘at muzeyida ko‘ylak hamda boshqa bezak buyumlari bilan birga nodir eksponat sifatida saqlanib kelmoqda. Ushbu an‘anaviy to‘qimachilik elementlarini, xususan, olti raportli palatno o‘rilishini va tabiiy o‘simliklardan bo‘yoq olish texnologiyasini zamonaviy yengil sanoatga tatbiq etish, bugungi kun trendidagi ekologik moda yo‘nalishida yangi milliy brendlarni yaratishga hamda xalqaro miqyosda ommalashtirishga mustahkam po‘ydevor bo‘ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1.Есбергенов Х., Атамуратов Т. Қарақалпақлардың миллий кийимлери (XIX–XX әсирлер). – Нукус: Каракалпақстан, 1999. – 142б.

2. Лобачева Н. П. Каракалпакский костюм: Историко-этнографический атлас. – Москва: Наука, 2002. – С. 85-112.
3. Савицкий И. В. Народное прикладное искусство каракалпаков. Резьба по дереву. Ткачество. – Ташкент: Гослитиздат УзССР, 1965. – 240 с.
4. Шаниязов К. Ш. Традиционное ткачество и крашение тканей у народов Средней Азии (Историко-этнографические очерки). – Ташкент: Фан, 1988. – С. 54-76.
5. Туреева Р. А. Қарақалпақ миллий «көк көйлеги» матасының тоқылыш структурасы хәм оның тарийхый әҳмийети // Вестник Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан. – Нукус, 2018. – № 3. – Б. 92-96.
6. Алламуратов А. Каракалпакская народная вышивка и ее орнаментальные мотивы. – Нукус: Билим, 1994. – 118 с.
7. Мухаммедова М. Х. Использование природных красителей (жоншиган, карамык) в традиционном текстиле Каракалпакстана // Проблемы текстильной технологии и легкой промышленности: Материалы международной конференции. – Ташкент, 2021. – С. 143-146.